

Xalqaro ilmiy bazalardan foydalanish bo'yicha seminar

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filialida "Science Direct" va "Scopus"ning xalqaro ilmiy bazasidan foydalanish bo'yicha o'quv-seminar bo'lib o'tdi. 2021-yil 18-fevral kuni TIQXMMI Qarshi filialida Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rribosari H.Ravshanov boshchiligidagi yosh professor-o'qituvchilarga ilmiy maqola yozish bo'yicha seminar-trening tashkil qilindi. Seminarga Toshkent shahridan "Elsevier Scince" kompaniyasi xodimlari taklif etildi. Mehmonlardan Dilnoza Allanazarova va Bekzod Abdullaevlar yosh professor-o'qituvchilarga skopusda maqola yozish haqida keng tushunchalar berib o'tishdi. D.Allanazarova nutqi davomida yosh izlanuvchilarga dunyo e'tirof etgan jurnallarni tanlashda o'z ilmiy maqolalarini qanday qilib onlayn tarzda joylashtirish, nimalarga e'tibor berish kerakligini amaliy tarzda ko'rsatib berdi.



B.Abdullaev nutqi davomida: "Bugungi kunda yosh izlanuvchilarimiz tomonidan skopusda maqola chiqarish uchun jurnal tanlashda xatoliklar ko'p kuzatilayotganligi, hozirda turli xil jurnallar faoliyat ko'rsatayotganligi, ya'ni o'z faoliyatini tugatgan jurnallar, faoliyatini tugatish arafasida turgan jurnallar va uzoq vaqt faoliyatini davom ettiradigan jurnallar borligini aytib o'tdi. Dastlabki ikki jurnal doimo kuzatuvda turadi. Sababi ma'lum vaqt davomida skopus bazasiga kirib-chiqib turadi. Agar biz shunday jurnallarga ilmiy maqolamizni joylashtirsak, katta ehtimol bilan chiqmaydi" degan ko'plab ma'lumotlarni keltirib o'tdi.



Bir necha soat davom etgan seminarda filialimiz yosh professor - o'qituvchilari skopus jurnallari haqida o'zlarini qiziqtirgan ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldilar, maqola yozish usullarini o'rgandilar. Tadbir qiziqarli savollarga boy hamda ochiq davra suhbat tarzida o'tkazildi. Tadbir yakunida D.Allanazarova "Elsevier Scince" kompaniyasi va TIQXMMI Qarshi filiali bilan hamkorlikda faol ish olib borish hamda bunday seminar-treninglarni ko'plab o'tkazish haqida aytib o'tdi. Yosh professor-o'qituvchilar bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lib, tashrif buyurgan mehmonlarga minnatdorchilik bildirishdi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rribosari A.Ravshanov va matbuot kotibi
Farrux Najimov axboroti**
TIQXMMI Matbuot xizmati